



O‘ZBEKISTON TO‘LOV BALANSI VA TASHQI SAVDO DINAMIKASI. (2025-YIL KO‘RSATKICHLARI TAHLILI)

O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich

Ma‘mun universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida dots.v.v

E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada joriy operatsiyalar hisobining asosiy ko‘rsatkichlari, tovarlar va xizmatlar eksporti hamda importi tendensiyalari, birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansining shakllanishi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari 2025-yilda savdo balansining manfiy saldog‘ini qoplashda ikkilamchi daromadlarning hal qiluvchi roli ortganini, shuningdek xizmatlar eksportining yuksak sur‘atlarda o‘sganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: to‘lov balansi, joriy operatsiyalar hisobi, tashqi savdo, eksport, import, savdo balansi, birlamchi daromadlar, ikkilamchi daromadlar, pul o‘tkazmalari.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida mamlakatning tashqi sektori ko‘rsatkichlari iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikning muhim mezon sifatida qaraladi. To‘lov balansi esa milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarning kompleks ko‘zgu aksidir.

2025-yil O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bir qator tashqi va ichki chaqiriqlar bilan to‘la yil bo‘ldi. Geosiyosiy keskinliklarning davom etishi, xalqaro savdo yo‘nalishlarining fragmentatsiyasi, yuqori iqtisodiy noaniqliklar. Shu bilan birga, mamlakatda tashqi savdo hajmlarining o‘sishi, xalqaro moliya bozorlaridan mablag‘lar jalb etishning faollashuvi va mehnat migrantlari pul o‘tkazmalarining ortishi kabi ijobiy tendensiyalar kuzatildi.[1]

Ushbu maqolaning maqsadi - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy yillik hisoboti ma‘lumotlari asosida 2025-yildagi to‘lov balansi va tashqi savdo dinamikasini tizimli tahlil qilish, asosiy tendensiyalarni aniqlash va 2026-yilga



oid prognozlarni baholashdan iborat. Tadqiqot dolzarbligi shundaki, to'lov balansini to'g'ri tushunish siyosatchilar, investorlar va tadqiqotchilar uchun asosiy navigatsiya vositasi hisoblanadi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida to'lov balansining tahliliy ko'rinishi, joriy operatsiyalar hisobi komponentlari saldosi, tovar va xizmatlar savdosi dinamikasi hamda jahon xomashyo narxlari ko'rsatkichlari ishlatildi. Hisobot Xalqaro valyuta jamg'armasining To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasining oltinchi nashri metodologiyasiga muvofiq tuzilgan. [1]

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: taqqoslama tahlil (2021–2025-yillar bo'yicha dinamik tahlil), struktur tahlil (komponentlarning umumiy hisobdagi ulushi), indeks tahlili (o'sish sur'atlari va nisbatlar), hamda bashorat metodlari (Markaziy bank prognozlari asosida 2026-yil baholash).

ASOSIY QISM

2025-yilda O'zbekistonning joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi 5,784.2 mln dollar yoki YalMga nisbatan 3,9 foizni tashkil etdi. Bu 2024-yildagi 5,723.1 mln dollar (YalMga nisbatan 4,7 foiz) ko'rsatkichiga nisbatan mutlaq qiymatda biroz oshgan bo'lsa-da, YalMga nisbatan ulushi 0,8 foiz bandga kamaygan. So'nggi besh yillik tendensiya ko'rsatadiki, mazkur ko'rsatkich 2023-yildagi -7,8 mlrd dollarlik eng yuqori taqchilikdan sezilarli darajada kamaygani kuzatilmoqda. [1]


2025-yilda tovarlar eksporti 2024-yilga nisbatan 17 foizga o'sib, 23,024.9 mln dollarni tashkil etdi (oltinsiz eksport - 13,2 mlrd dollar, o'sish 9 foiz). Jami tovar va xizmatlar eksporti esa 23 foizga o'sib, 32,3 mlrd dollarni tashkil etdi. [1]

Eksport o'sishiga quyidagi omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, jahon xomashyo bozorlarida narxlarning qulay shakllanishi: 2025-yil davomida oltin narxi yil boshiga nisbatan 63 foizga, kumush narxi 2 barobarga, mis narxi esa 32 foizga oshdi. Uran narxi 5 foizga ko'tarildi. Bu narx effekti O'zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari bo'yicha qo'shimcha daromad keltirdi. Ayni paytda, to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi paxta narxi 7 foizga pasaygan, bu esa tekstil eksporti bo'yicha ma'lum bosim yaratdi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi ham eksport dinamikasiga ijobiy hissa qo'shdi. Qishloq xo'jaligi, kimyo, oziq-ovqat va metallurgiya sohalarida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish kengaydi. Uchinchidan, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zolikka tayyorgarlik jarayonida tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda va eksport geografiyasi diversifikatsiyalanmoqda.

1-rasm. Tovar va xizmatlar savdosi⁵

(mlrd dollar)



Ko'rishimiz mumkinki, xizmatlar eksporti 2025-yilda ayniqsa yuksak sur'atlarda rivojlandi. 42 foizga o'sib, 9,274.1 mln dollarni tashkil etdi. Bu so'nggi besh yillik davrda eng yuqori o'sish sur'ati hisoblanadi (2021-yilda xizmatlar eksporti atigi 2,3 mlrd dollar edi, ya'ni besh yil ichida 4 barobarga ko'paydi).[2]

Xizmatlar eksporti o'sishining asosiy drayverlari: turizm va sayyohlik O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonining sezilarli ortishi. Transport va logistika - mintaqadagi transport koridorlaridan, jumladan, O'rta Korridor orqali tranzit yuk oqimidan foydalanish ko'lamining kengayishi, axborot texnologiyalari (IT) - ushbu sohadagi tarkibiy islohotlar va kadrlar salohiyatining oshishi natijasida eksport xizmatlari hajmining o'sishi.

2025-yilda jami import hajmi 2024-yilga nisbatan 20 foizga ko'payib, 52,154.0 mln dollarga yetdi. Shundan: tovarlar importi 16 foizga o'sib 38,546.5 mln dollarni, xizmatlar importi esa 30 foizga ko'payib 13,635.5 mln dollarni tashkil etdi. [3]

Import o'sishining asosiy sabablari mamlakatdagi investitsiyaviy faollikning yuqori darajada saqlanishi - mashina, uskunalar va mexanizmlar importi o'sdi, ichki iste'mol talabining kengayishi - oziq-ovqat, maishiy tovarlar importi ko'paydi, kimyoviy va mineral mahsulotlar importining davom etishi. Importning eng yuqori hajmi 2025-yilning IV choragiga to'g'ri kelib, 15,3 mlrd dollarni tashkil etdi - bu mavsumiy va davra omillari hamda investitsiya loyihalari finishi bilan bog'liq.

⁵ Markaziy bank ma'lumotlari asosida



XULOSA

Tahlil natijalari bir qator muhim xulosalarni ko'rsatadi. Birinchidan, eksportning diversifikatsiyalanishida ijobiy siljish kuzatilmoqda. Tovarlar eksporti 17 foizga o'ssa, xizmatlar eksporti 42 foizga o'sdi. Bu xomashyoga bog'liqlikni kamaytirish istiqbolida ijobiy signal, chunki xizmatlar - yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi va narx o'zgarishlariga chidamliroq eksport turi.

Ikkinchidan, oltin narxiga bog'liqlik omilning ikki tomoni mavjud. Oltin narxining o'sishi bir tomondan eksport daromadini oshirsa (2025-yilda oltin eksport tarkibida salmoqli ulushni tashkil etadi), ikkinchi tomondan zaxiralar qiymatini oshirmoqda. Biroq bu bog'liqlik o'zgaruvchan xalqaro konyunktura sababli xavfni ham oshiradi. [2]

Uchinchidan, pul o'tkazmalari taqchilikning asosiy dastagi sifatida ishlashi O'zbekiston uchun qo'sh xavf tug'diradi. Bir tomondan, bu mablag'lar iqtisodiyotni stabilashtiradi; boshqa tomondan, ularning mehnat bazasidagi o'zgarishlar, qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiy holati yoki valyuta kurslari o'zgarishiga nisbatan sezgirligi yuqori. IMF ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilda Rossiya iqtisodiyoti atigi 0,8 foizga o'sishi kutilmoqda - bu O'zbekiston migrantlarining asosiy qismi joylashgan bozorning sust qolayotganini anglatadi. [2]

To'rtinchidan, import o'sishi (20 foiz) eksport o'sishidan (23 foiz) past bo'lgan bo'lsa-da, mutlaq qiymatda import hajmi eksportdan deyarli 2 barobar katta: 52,2 mlrd dollarlik import 32,3 mlrd dollarlik eksportga qarshi. Bu tuzilmaviy nomutanosiblik - sanoat rivojlanishi va texnologik modernizatsiya importga bog'liqlikning qisqa muddatda kamaymayishini ko'rsatadi.

Beshinchidan, IT va texnologiya xizmatlari eksportining o'sish tendensiyasi, agar izchil davom ettirilsa, O'zbekistonga xomashyo eksportiga muqobil raqobatbardosh eksport yo'nalishini shakllantirish imkonini beradi. 2026-yil uchun Markaziy bank prognozi ham IT, turizm va transport yo'nalishlarini xizmatlar eksportining asosiy drayverlari deb belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarzi: Yillik hisobot 2025. – Toshkent: <https://cbu.uz/uz/publications/balance-of-payments/>

2. International Monetary Fund. Balance of Payments and International Investment Position Manual, Sixth Edition (BPM6). – Washington, D.C.: IMF, 2009. URL: <https://data.imf.org/>

3. IMF. World Economic Outlook, January 2026. – Washington, D.C.: IMF, 2026.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027–2028-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. – Toshkent: O'zbekiston



Respublikasi Markaziy banki, 2025. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/publications/press-releases/3096025/>

5. Shamansurova, Z., Urinboyev, U., & O‘rinboyev, U. B. Priority Directions for Ensuring National Currency Stability Within the Framework of the "Uzbekistan-2030" Strategy. *Advanced Economics and Pedagogical Technologies*, 1(3), 100-106.

6. Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Labor economics and human capital*, 4(3), 186-198.

7. Niyozmetov, D. (2024). ACTIVITIES AND SPECIFICS OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies* (Vol. 11, pp. 57-58).